

OMMAVIY OFERTA
№ _____ – Tartib raqami

_____ yil

Toshkent sh.

**YURIDIK SHAXSLAR VA TADBIRKORLIK SUBʼEKTLARIGA ONLAYN KREDIT
AJRATISH HAQIDA OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI**

Kredit yillik foiz stavkasi: 32.99%
(oʻttiz ikki butun yuzdan toʻqson toʻqqiz foiz)

Qarz beruvchi – “Davr bank” XATB
Qarzdor – " _____ "

1. Umumiy shartlar

1.1. Mazkur shartnomaga koʻra bank yuridik shaxslar va tadbirkorlik sub'ektlariga yopiq kredit liniyasi xisobidan, milliy valyutada bankning "Internet Bank" masofaviy bank xizmati tizimi (keyingi oʻrinlarda – Tizim) orqali onlayn kredit ajratish yuzasidan ommaviy ofertani taklif etadi.

1.2. Mazkur oferta shartnomasida aks etgan shartlar yuridik shaxs (keyingi oʻrinlarda – Qarzdor) tomonidan toʻliq oʻrganilishi shart. Mazkur ommaviy oferta shartlari Qarzdor tomonidan Bank Tizimidagi shaxsiy kabinetini orqali aktseptlanganidan soʻng Tomonlar uchun majburiy hisoblanadi.

1.3. Qarzdor tomonidan ommaviy ofertani aktseptlash quyidagilar hisoblanadi:

- Shartnoma shartlarini Qarzdor tomonidan boricha va toʻliqligicha qabul qilish;
- Oʻzaro tushunmovchilik va nizolar vujudga kelganida Bank shartnoma shartlariga tayanish huquqini beradi;
- Artnomadan dalil sifatida foydalanish imkoniyatini beradi;
- Mazkur shartnoma shartlari Qarzdorga Bank Tizimi orqali onlayn kredit ajratilgan vaqtdan boshlab amal qiladi;
- Mazkur oferta va uning shartlari Fuqarolik kodeksining 367, 369, 370- moddalariga asosan ishlab chiqilgan.

1.4. Mijoz Tizimdan foydalanishi davomida, Bank tomonidan Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish boʻyicha qonunchilik hujjatlariga asosan tegishli choratadbirlar amalga oshiriladi.

1.5. Onlayn kredit ajratilish/ajratilmasligi va maksimal summasi Bankning skoring tizimi orqali aniqlanadi.

2. Shartnoma predmeti

2.1. Bank ushbu ofertani aktseptlovchi Qarzdorga biznes faoliyatini rivojlantirish maqsadida aylanma mablagʻlarni toʻldirish uchun onlayn kredit berish majburiyatini, Qarzdor esa



Hujjat elektron imzo bilan imzolangan

Tashkilot nomi: _____

Rahbari: _____

kun.oy.yil soat:dakika:soniya

olingan onlany kredit mablag'larini belgilangan muddatda qaytarish va onlany kreditdan foydalanganligi uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi.

3. Onlayn kredit ajratish shartlari, tartibi va maqsadlari

3.1. Onlayn kredit Qarzdorga kredit mablag'larining maqsadli ishlatilishining keyingi tekshiruviziz Biznes faoliyatini rivojlantirish maqsadida Qarzdorning "Davr bank" XATBdagi hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan ajratiladi.

3.2. Bank tomonidan onlayn kredit mazkur ommaviy oferta aktseptlangan vaqtdan boshlab 3 (uch) bank ish kunidan kechiktirmasdan ajratiladi.

3.3. Mikroqarz muddati: 12 (o'n ikki) oygacha.

3.4. Kreditni so'ndirish tartibi: oyma-oy annuitet shaklida, asosiy qarz va unga hisoblangan foizlarni so'ndirish xar oyda bir marotaba amalga oshiriladi.

3.5. Kreditlashning asosiy tamoyillari: muddatlilik, qaytarishlilik, maqsadlilik va to'lovlilikni ta'minlash.

3.6. Qarzdor Bank tomonidan mazkur Shartnomaning shartlariga, Qarzdorning talablari va so'rovlariga muvofiq Kreditning hisobiga amalga oshirilgan istalgan to'lovlarni so'zsiz ravishda o'z qarzi deb tan oladi.

3.7. Bankning Qarzdorning hisob raqamlaridan ko'chirmalari, yaqqol xatolar bo'lmaganda, Qarzdorning mazkur Shartnoma bo'yicha to'lov majburiyatlari yuzaga kelishi yoki bajarilishining yakuniy tasdig'i bo'ladi.

4. Onlayn kreditni qaytarish va foizlarni to'lash tartibi

4.1. Onlayn kredit bo'yicha foizlar har ish kunining yakuniga qadar yiliga 365 kun va har oying mavjud bo'lgan kunlar soni bo'yicha nol qoldiq vujudga kelguniga qadar hisoblanadi. Foizlar miqdori yiliga 32,99% (o'ttiz ikki butun yuzdan to'qson to'qqiz foiz)ni tashkil etadi. Qarzdor onlayn kredit bo'yicha to'lov jadvalida belgilangan muddatdan kechiktirganda, muddatini o'tkazib yuborishning birinchi kunidan boshlab – muddati utgan asosiy qarzga nisbatan kunlik 0,3% (no'l butun o'ndan uch foiz)dan foiz xisoblab boriladi. Bank jarima va penyalarni qarzdorning har qanday hisob raqamlaridan aktseptsiz ravishda memorial order yoki to'lov talabnomasi vositasida undirib olish huquqiga ega va Qarzdor buning uchun barcha tegishli vakolatlarni Bankka beradi.

4.2. Onlayn kredit bo'yicha asosiy qarzni, u bo'yicha foizlarni va boshqa to'lovlarni qaytarish Qardorning barcha hisob raqamlaridan amalga oshiriladi. Onlayn kredit bo'yicha to'lovlar quyida keltirilgan to'lov jadvali asosida amalga oshiriladi:

№	Sana	Summa
1	03.02.2025	7 746 143,61
2	03.03.2025	7 746 143,61
3	02.04.2025	7 115 226,60
4	02.05.2025	7 783 821,22
5	02.06.2025	7 879 295,06
6	02.07.2025	9 156 336,43
7	02.08.2025	4,134,392.88
8	02.09.2025	6,083,439.53
9	02.10.2025	5,923,504.77



Hujjat elektron imzo bilan imzolangan

Tashkilot nomi: _____

Rahbari: _____

kun.oy.yil soat:dakika:soniya

10	04.11.2025	6,538,226.09
11	02.12.2025	8,310,906.91
12	02.01.2026	8,985,000.93
Jami		100,000,000.00

4.3. Shartnoma bo'yicha har qanday to'lovlar quyidagi ketma ketliklarga muvofiq yo'naltiriladi:

- Muddatida to'lanmagan asosiy qarz bo'yicha hisoblangan yuqori foizlar;
- Muddatida to'lanmagan foizlar;
- Asosiy qarz bo'yicha muddati kelgan to'lovlar;
- Onlayn kredit bo'yicha hisoblangan foizlar;
- Qarzdorning boshqa majburiyatlarini to'lashga.

4.4. Qarzdor shartnoma bo'yicha to'lov majburiyatlarini bajarishi uchun yetarli bo'lgan, Bankda, shuningdek boshqa banklarda ochilgan har qanday valyutadagi mablag'larini uning roziligi yoki farmoyishsiz hisobdan chiqarish imkonini beruvchi, amalda bo'lgan, qaytarilmaydigan va hech qanday shartlarsiz huquqni taqdim etadi.

4.5. Qarzdor xar oyning 2 (ikkinchi) sanasida to'lov jadvaliga asosan asosiy qarz va mikroqarzni ishlatganligi uchun foiz qarzdorlikni to'lab berish majburiyatini oladi.

4.6. Bank qo'shimcha harajatlarga olib keluvchi istalgan Qarzdorning talablarini, Qarzdor Bankning ixtiyoriga shunday harajatlarni to'lash uchun yetarli bo'lgan mablag'ni bermaguncha bajarmasligi mumkinligiga Qarzdor o'z roziligini bildiradi.

4.7. Kreditni qaytarish va foizlarni to'lash yuzasidan barcha to'lovlar Qarzdor tomonidan Kreditning valyutasida yoki to'lovlar amalga oshiriladigan kundagi Bank kursi bo'yicha xorijiy valyutada amalga oshirilishi mumkin. Qarzdor olingan kredit bo'yicha valyuta kursidagi o'zgarish xatarlari to'g'risida Bank tomonidan ogoxlantirilganligini tasdiqlaydi. Qolgan barcha to'lovlar, shu jumladan, Qarzdor tomonidan Bankka mazkur Shartnoma bo'yicha to'lanadigan yoki qoplab beriladigan istalgan qo'shimcha harajatlar, Qarzdor tomonidan Bankka Bankning tegishli harajatlarining valyutasida to'lab beradi.

4.8. Qarzdor tomonidan mazkur Shartnoma bo'yicha to'lov majburiyatlari bajarilmagani tufayli, Bank o'z ixtiyoriga ko'ra Bank yoki Qarzdorning ixtiyorida bo'lgan istalgan valyutadagi Qarzdorning pul mablag'larini to'lov valyutasiga, ushbu to'lov valyutasidan Bank valyuta bozorida shu sanaga ustuvor bo'lgan sotib olish kursi bo'yicha olib foydalanishi mumkin bo'lgan eng yaqin sanada konvertatsiya qilishga haqli. Bunday konvertatsiya bo'yicha barcha harajatlarni, shu jumladan Bankning konvertatsiya sanasidan toki Qarzdor tomonidan Bankka to'liq mablag' miqdori qoplab berilgan sanasigacha yuz bergan valyuta kursining o'zgarishlari tufayli zararlarini Qarzdor qoplab berishi lozim. Bank bunday holda Qarzdor bankka birinchi talabiga ko'ra qoplab berish majburiyatini zimmasiga oladigan uning ko'rgan harajatlari, mablag'lar miqdori va valyutasi haqida Qarzdorni xabardor qiladi.

4.9. Qarzdorning mazkur Shartnoma bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan to'lovlari Bankning talabiga ko'ra darhol to'lanishi lozim. Qarzdor tomonidan onlayn kredit bo'yicha asosiy qarz va foizlarni to'lash muddati o'tkazib yuborilganda, Bank Qarzdorning hisobvarag'laridan kerakli summani qonunchilikda belgilangan tartibda undirib olishga haqlidir.

5. Onlayn kredit va unga hisoblangan foizlarni muddatidan ilgari qaytarish



Hujjat elektron imzo bilan imzolangan

Tashkilot nomi: _____

Rahbari: _____

kun.oy.yil soat:dakika:soniya

5.1. Qarzdor onlayn kredit bo'yicha bir yoki undan ortiq to'lovni muddatidan ilgari, mazkur shartnoma bilan belgilangan to'lovlarning istalgan sanasida quyidagi shartlar asosida amalga oshirishi mumkin:

- Qarzdor mazkur Shartnoma doirasida istalgan to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikka ega emas va Bankning oldida boshqa bajarilmagan majburiyatlariga ega emas.

5.2. Qarzdor kredit uchun hisoblanadigan foizlarni foiz to'lash muddati kelguniga qadar to'lov topshiriqnomasi asosida 22812... (kelgusi davr foizli daromadlar) hisobvarag'iga o'tkazishi mumkin.

5.3. Qarzdor o'zining asosiy hisobraqamini Bankdan olib chiqib ketishni rejalashtirgan bo'lsa, Bank tomonidan ajratib berilgan kredit avval to'liq qaytarilishi lozim.

6. Onlayn kredit ta'minoti

6.1. Qarz oluvchi onlayn kreditning umumiy summasini kredit qaytmasligi xatari bo'yicha sug'urta kompaniyasi orqali sug'urtalash va ushbu sug'urtani mazkur Shartnomaning butun amal qilish davriga ta'minlash majburiyatini oladi. Sug'urta holati yuzaga kelganida naf oluvchi bo'lib Bank hisoblanadi. Sug'urta polisi taqdim qilgan Oferta shartnomasi Qarz oluvchi tomonidan Bankning "Internet Bank" masofaviy bank xizmati tizimida aktseptlash orqali imzolanadi.

6.2. Qarz oluvchi onlayn kreditning umumiy summasini kredit qaytmasligi xatari bo'yicha sug'urta kompaniyasi orqali sug'urtalash oferta shartnomasini aktseptlash orqali tasdiqlamasa, onlayn kredit ajratilmaydi.

6.3. Bank tomonidan Bank mablag'lari hisobiga sug'urta mukofoti to'langan taqdirda Qarz oluvchi Bankka 1 (bir) bank ish kuni ichida sug'urta mukofotini qoplash majburiyatini oladi.

7. Hisobot va moliyaviy majburiyatlar

7.1. Agar Bank boshqachaga rozi bo'lmasa, u holda Qarzdor Bankni talabi bilan shakli va mazmuni bo'yicha Bankni qondiruvchi quyidagi hisobotlar, izohlar va ma'lumotlarni taqdim etib boradi:

- Moliyaviy hisobotlar-oxirgi hisobot yili hisobotlar, asosiy vositalar, xom-ashyo va tayyor mahsulot qoldig'i yoyilmalari, muddati o'tgan qarzdorliklar bo'yicha imzolangan va muhrlangan solishtirma dalolatnomalari, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, boshqa xo'jalik sub'ektlarida rahbar yoki buxgalter yoki bo'lmasa ta'sischi sifatida qatnashi va qatnashmasligi, yuridik yoki jismoniy shaxs sifatida amaldagi qarzlari, shu jumladan moliyaviy yordamlar bo'yicha huquq va majburiyatlari haqida yozma ma'lumot;

- Bank oqilona talab qilgan Qarzdor xususidagi va Loyihaning (agar mavjud bo'lsa) amalga oshirilishi yuzasidan istalgan turdagi ma'lumotlar;

- Qarzdor o'ziga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan istalgan muhim noqulay o'zgarish yoki yuzaga kelgan holatlar haqida, Qarzdorning majburiyatlarni bajarmasligi yoki majburiyatlarini bajarmasligi ehtimoliy holati to'g'risida, shuningdek Qarzdorni qayta tashkil etishning istalgan rejalari to'g'risida darhol xabar berish;

- Qarzdor Bankni onlayn kreditni kaytarishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday voqea(lar) va vaziyat(lar) haqida xabardor etadi.



Hujjat elektron imzo bilan imzolangan

Tashkilot nomi: _____

Rahbari: _____

kun.oy.yil soat:dakika:soniya

- Qarzdor hisobot yili tugagandan so'ng 25 fevralgacha, o'z faoliyatiga nisbatan qonunchilikka asosan qo'yilgan talablardan kelib chiqqan holda, davlat ekologik ekspertizasida ko'rsatilgan shartlarni o'z vaqtida va to'liq bajarayotganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni bankga taqdim etadi.

7.2. Qarzdor Bankning so'roviga ko'ra Bank vakillariga Loyihaga (agar mavjud bo'lsa) tashrif buyurish hamda onlayn kreditning mablag'laridan moliyalashtiriladigan tovarlar va xizmatlarni, shuningdek Qarzdorning majburiyatlarini bajarishga daxldor bo'lgan har qanday binoni, mulkni, uskunalarni, hisobotni va hujjatlarni ko'rib chiqish imkoniyatini ta'minlaydi.

7.3. Agar Bank boshqachaga rozi bo'lmasa, u holda Qarzdor hisob, xarajatlarni nazorat qilish va axborotni boshqarish tizimini ta'minlaydi, amallarga rioya qiladi, Qarzdorning moliyaviy holatini va uning amallarining natijalarini umumqabul qilingan buxgalterlik hisobi standartlariga muvofiq holda aniq va to'g'ri aks ettiruvchi hisob daftarlarini, moliyaviy qaydnomalarni hamda boshqa hisobotlarni yuritadi.

8. Tasdiqlov majburiyatlari

8.1. Agar Bank boshqachaga rozi bo'lmasa, u holda Qarzdor quyidagilarni bajarishi lozim:

- Butun onlayn kreditdan foydalanish davrida onlayn kreditdan faqat mazkur Shartnomada belgilangan maqsadlarda foydalanish;

- O'z faoliyatini amalga oshirish va mazkur Shartnomaning shartlarini bajarish uchun barcha ruxsatnomalarni va litsenziyalarni o'z vaqtida olish va uzaytirish;

- O'z xonalari, uskunolari, faoliyatida foydalanadigan maydon(lar) va boshqa mulklarni normal ish va soz holatda tutib turish hamda zarur bo'lganda darhol ularni sog'lom moliyaviy va texnologik amaliyotga muvofiq kerakli ta'miri va yangilanishini amalga oshirish;

- Barqaror va nuqsonsiz obro'ga ega bo'lgan sug'urta kompaniyalarida o'z mulkini sug'urta qilish hamda Bankning talabiga ko'ra bunday sug'urtani Bankning foydasiga o'tkazish;

- O'z faoliyati va amallarini O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshirish;

- O'z faoliyati ustidan buxgalterlik hisobi va nazorat qilish tizimini buxgalterlik hisobining amaldagi qoidalariga muvofiq amalga oshirish;

- Bankdagi o'zining barcha hisob raqamlarini mazkur Shartnoma bo'yicha o'zining barcha to'lov majburiyatlari bajarilguncha ishlatib turish;

- Qarzdorning onlayn kreditni qoplash bo'yicha majburiyatlari Qarzdor tomonidan uchinchi shaxslar oldidagi bunday majburiyatlariga qaraganda birinchi navbatda bajarilishini ta'minlash;

- Qarzdorning foydasidan dividendlar faqat Bankda ochilgan maxsus jamg'arma hisob raqamiga joriy onlayn kredit bo'yicha asosiy qarz va foizlarni to'lash uchun yetarli bo'lgan mablag' o'tkazilganidan keyingina to'lanishi mumkin;

- Bank oldidagi qarzini Loyiha bo'yicha, ya'ni bank krediti hisobidan rejalashtirilgan faoliyat, shuningdek qarzdorning boshqa faoliyati uchun kelib tushayotgan mablag'lar hisobidan so'ndirish.

8.2. Mazkur shartnoma kuchda bo'lgan davrda, agar ular kreditlanayotgan loyihaga yoki Qarzdorning mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish imkoniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan bo'lsa, Bankning oldindan roziligini olmasdan, Qarzdor quyidagi harakatlardan birortasini amalga oshirmaslik majburiyatini oladi:



Hujjat elektron imzo bilan imzolangan

Tashkilot nomi: _____

Rahbari: _____

kun.oy.yil soat:dakika:soniya

- Boshqa kreditorlardan kredit va boshqa har qanday qarz(lar) olish, boshqa shaxslarga kredit va qarz berish, uchinchi shaxslarning kreditorlari oldida kafil (yoki garant) bo'lib chiqish, boshqa banklarda biror-bir hisobvaraqlar ochish;

- Mulkining hammasini yoki bir qismini sotish yoki boshqa yo'llar bilan begonalashtirish, begona shaxslarga berish, ijaraga berish; garovga qo'yish, ushlab qolish huquqi va uchinchi shaxslar foydasiga o'z mulkiga nisbatan boshqa imtiyozli huquqlarni vujudga keltirish;

- Ta'sischilarning almashishi.

9. Inkor majburiyatlari

9.1. Mazkur Shartnomaning amal qilish muddati davomida Qarzdor Bankning avvaldan yozma roziligisiz quyidagilarni amalga oshirishi mumkin emas:

- Uchinchi tomonning kreditlarini jalb qilish;
- Uchinchi tomonga kreditlarni berish;
- Dividendlarni to'lashni va hisoblashni amalga oshirish;
- Sho'ba korxonalarini tuzish;
- Ustavga jiddiy o'zgartirishlarni kiritish, va unga biror-bir jiddiy o'zgartirishlar kiritishga yo'l qo'yish;
- Uchinchi tomon bilan bajarilishi mazkur Shartnomaning shartlariga zid kelishi mumkin bo'lgan yoki Qarzdorning mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini tegishlicha bajarishiga xavf solishi mumkin bo'lgan istalgan kelishuvlarga kirishish;
- Qarzdorning faoliyati yoki mulkining barchasi yoki bir qismi uchinchi tomon bilan boshqariladigan kelishuvlarga kirishish;
- Qo'shilish, tugatish yoki istalgan boshqa qayta tashkil etishni amalga oshirish;
- Asosiy kapitalga kiruvchi o'z mulkining barchasini yoki bir qismini uchinchi tomonlarga begonalashtirish, sotish va berish;
- Asosiy faoliyati bo'yicha ishlab chiqarish fondlari bilan bog'liq bo'lgan o'z mulkining barchasini yoki bir qismini uchinchi tomonlarga ijaraga berish;
- Uchinchi tomonlar foydasiga Qarzdorning ularning oldidagi majburiyatlari bo'yicha ta'minoti sifatida o'z mulki va pul mablag'lari, shuningdek nomulkiy huquqlari yuzasidan garov, ushlab turish huquqlari va boshqa istalgan imtiyozli huquqlar shaklida taqdim etish;
- Uchinchi tomonga istalgan qarz majburiyatlarini muddatidan ilgari to'lashni amalga oshirish;
- Bank onlayn kreditidan mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan maqsadlarda foydalanish;
- Loyihaga va/yoki Kontrakt qiymatiga, sotish muddatlariga, ishlab chiqarish quvvatining o'zgarishiga va mahsulotning sifatiga hamda tomonlarning kafolat majburiyatlariga ta'sir etuvchi o'zgartirishlar kiritilishiga rozilik berish;
- O'z kapitalni qisqartirish yoki qayta sotib olish yoki o'zining istalgan aktsiyalarini bekor qilish;
- Boshqa banklarda istalgan boshqa hisob raqamlarini ochish;
- Boshqa kreditorlardan kredit va qarz olish, boshqa shaxslarga kredit va qarz berish, uchinchi shaxslarning kreditorlari oldida kafil (yoki garant) bo'lish;
- Mulkining hammasini yoki bir qismini sotish yoki boshqa yo'llar bilan begonalashtirish, begona shaxslarga berish, ijaraga berish, garovga qo'yish, ushlab qolish huquqi va uchinchi shaxslar foydasiga o'z mulkiga nisbatan boshqa imtiyozli huquqlarni vujudga keltirish;



Hujjat elektron imzo bilan imzolangan

Tashkilot nomi: _____

Rahbari: _____

kun.oy.yil soat:dakika:soniya

- O‘zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha qonun hujjatlari talablariga nomuvofiq ravishda ajratilgan kreditdan foydalanish;

- Xalqaro sanktsiyaviy ro‘yxatdagi shaxslarning aktivlari, aktsiya yoki xizmatlarini sotib olish, ularga investitsiya kiritish, ustavini shakllantirish, shuningdek ajratilgan kreditdan ularga har qanday shaklda foyda keltirish maqsadida foydalanish, shu bilan birga har qanday turdagi operatsiyalarni xalqaro sanktsiyalarni “aylanib o‘tish” maqsadida bajarish;

9.2. Shartnomaning 9.1-bandida keltirib o‘tilgan inkor majburiyatlardan biri Qarzdor tomonidan bajarilganligi Bankka ma'lum bo‘lib qolgan taqdirda Bank onlayn kredit mabalag‘larini muddatidan oldin qaytarib olish chorasini ko‘rishi mumkin.

10. Qarzdorning tasdiqlovlari

10.1. Qarzdor ushbu hujjat (shartnoma) bilan tasdiqlaydiki:

- U tegishli tuzilgan va O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq ro‘yxatdan o‘tkazilgan yuridik shaxsdir;

- Mazkur Shartnomani “E-imzo” bilan imzolagan shaxslar Qarzdorning ta'xis hujjatlariga muvofiq bunga tegishli vakolatlangan va Qarzdor Shartnomada ko‘zda tutilgan majburiyatlarni bajarishga haqli hamda ushbu majburiyatlar amaldagi qonunchilikka muvofiq haqiqiy va unga nisbatan qo‘llanila oladi;

- Shartnomani imzolash va uni bajarish O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga, Qarzdorning ustav hujjatlariga, shuningdek Qarzdor tomoni bo‘lgan uchinchi tomonlar bilan istalgan boshqa kelishuvlarga zid kelmaydi;

- Qarzdorning majburiyatlariga qonuniy kuch berish uchun zarur bo‘lgan barcha kerakli ruxsatlar, litsenziyalar, vakolatlar, ro‘yxatdan o‘tkazishlar, tasdiqlovlar va boshqa harakatlar va hujjatlar olingan va kuchga kirgan;

- Qarzdorga qarshi ma'muriy, arbitraj va surishtiruv, tergov, sud harakatlari qo‘zg‘atilmagan hamda Qarzdorning faoliyatiga yoki uning mazkur Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini bajarishiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo‘lgan uchinchi tomonlar oldidagi bajarilmagan majburiyatlari mavjud emas;

- Qarzdor o‘zining istalgan aktivlari yuzasidan uchinchi tomonlarning foydasiga garovlarni hosil qilmagan;

- Mazkur Shartnoma bo‘yicha Majburiyatlarni bajarmasligi holat(lar)i mavjud emas;

- Mazkur Shartnoma bo‘yicha to‘lov majburiyatlarini ta'minlash uchun Qarzdor, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 783-moddasiga muvofiq mazkur hujjat bilan Bankka Qarzdorning Bankdagi va boshqa banklardagi istalgan hisob raqamlaridan istalgan valyutadagi pul mablag‘larini Qarzdorning bunday hisobdan chiqarish uchun biror-bir topshiriqlari va/yoki roziliklarisiz, so‘zsiz hisobdan chiqarish huquqini beradi.

10.2. Qarzdor tushunadiki:

- Bank Qarzdorning mavjud mablag‘larini to‘lov valyutasiga konvertatsiya qilishdagi bozorda bunday valyuta topilmaganligi tufayli yoki boshqa sabablar bilan istalgan kechiktirishlar uchun javobgar bo‘lmaydi;

- Bank Bank va Qarzdor o‘rtasidagi Shartnoma bekor qilingan va/yoki Bank tomonidan Qarzdor oldidagi majburiyatlar bajarilgan va Qarzdor Bankning oldidagi o‘z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda yoki Bankning nazarida Qarzdorning onlayn kredit mablag‘larini belgilangan muddatda qaytarishiga shubha bo‘lganda o‘z farmoyishi bilan qarzning to‘liq miqdorini yoki



Hujjat elektron imzo bilan imzolangan

Tashkilot nomi: _____

Rahbari: _____

kun.oy.yil soat:dakika:soniya

uning bir qismini muddatidan ilgari undirish uchun taqdim etishga va/yoki qarzlarni qoplashni belgilangan tartibda mustaqil amalga oshirishga haqli. Qarzdorning Bank oldida shunday qarzi yuzaga kelgan holda, onlayn kredit bo'yicha mablag'larni muddatidan ilgari undirish belgilanadi.

11. Majburiyatlar bajarilmasligi holatlari

11.1. Quyidagi holatlardan istalgan biri Majburiyatlar bajarilmasligi holati bo'ladi:

- Qarzdor mazkur Shartnoma bo'yicha belgilangan tegishli sanada onlayn kredit bo'yicha, foizlar, komissiyalar yoki boshqa to'lovlar bo'yicha yoki ushbu Loyihaning amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan Bank bilan boshqa istalgan shartnoma bo'yicha to'lovni amalga oshirmasa;
- Bankning fikricha Loyihani amalga oshirishga yoki Qarzdorning Bank oldidagi to'lov majburiyatlarini bajarishga jiddiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan voqealar sodir bo'lsa, shu jumladan kredit maqsadsiz ishlatilsa, qarzdor zarar ko'rib ishlayotgan bo'lsa, Loyiha ijrosini ta'minlamay qo'ysa, bank talab etgan ma'lumot, hisobot, izoh, sertifikat, litsenziya, xulosa va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni yozma ravishda taqdim etmayotgan yoki bu ishni paysalga solayotgan bo'lsa, taqdim etgan hisobotlari, ma'lumot va izohlari haqiqiy bo'lib chiqmasa, nolikvid balansga ega bo'lsa, ishlab chiqarish yoki faoliyati manzilini Bankni xabardor etmagan ravishda o'zgartirsa;
- Mazkur Shartnoma bo'yicha moliyalashtiriladigan Loyiha yoki Kontrakt Bankning roziligisiz o'zgartirilsa yoki bekor qilinsa;
- Bankni avvaldan yozma xabardor etmagan holda Qarzdorning asosiy kapitalini kamaytirish, qayta tashkil etish, qo'shish, mulkini berish, bo'lish yoki tugatish amalga oshirilsa;
- Qarzdorning Bankka Loyiha yuzasidan, Loyihaning bajarilishi yoki mazkur shartnoma yuzasidan taqdim etilgan istalgan yozma arizasi, hisoboti yoki ma'lumotlari, ularning taqdim etish vaqtiga kelib haqiqatga mos kelmagan deb tan olinsa;
- Bank uchun onlayn kreditni berishni yoki onlayn kredit bo'yicha Qarz mavjudligini mumkin emas yoki maqsadga nomuvofiq qiluvchi, yoki Qarzdorning mazkur Shartnoma bo'yicha istalgan majburiyatlarni bajarishga ta'sir etuvchi qonunchilik yoki tartibga soluvchi qoidalar kiritilsa;
- Loyihaning tegishlicha bajarilishi va Qarzdorga mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini tegishlicha bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday ruxsatnomalar, sertifikatlar, litsenziyalar, ro'yxatdan o'tkazishlar, guvohnomalar va hokazolar o'z kuchini yo'qotsa yoki bunday hujjatlarsiz boshqa faoliyat boshlagani Bankka ma'lum bo'lib qolsa;
- Qarzdor o'z to'lov majburiyatlarini bajarishga qodir bo'lmay qolsa yoki unga qarshi bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atilgan, yoki Qarzdor bankrot deb e'lon qilinsa;
- Qarzdor tomonidan Bankka onlayn kredit bo'yicha taqdim etilgan istalgan ta'minot yo'qotilsa yoxud haqiqiy bo'lmay qolsa;
- Qarzdor mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarmasa;
- Bank Qarzdorning Loyiha bo'yicha nazorat va hisobot amallaridan qoniqmagan, qarzdor manziliga chiqib Loyihani tahlil etish, kuzatib borish va monitoring o'tkazish imkoniyatisiz qolsa yoki Qarzdorni nazorat qilish uchinchi shaxslarga berilsa;
- Istalgan vakolatli organ tomonidan Qarzdorni tarqatish yoki faoliyatini to'xtatish yuzasidan istalgan harakatlar amalga oshirilgan yoki Qarzdor uchun shunga o'xshash ahamiyati bo'lgan boshqa istalgan harakat sodir etilsa.

11.2. Qarzdor to'lovga layoqatsiz deb topilganda, onlayn kreditni ta'minlash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganda, shartnoma imzolanganidan keyin taqdim etilgan onlayn kreditni qaytarilishiga ta'sir ko'rsatuvchi ma'lumot va hisobotlarning haqqoniy emasligi aniqlanganda hamda Bankning ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlari kuchga kirganidan so'ng Qarzdor



Hujjat elektron imzo bilan imzolangan

Tashkilot nomi: _____

Rahbari: _____

kun.oy.yil soat:dakika:soniya

tomonidan onlayn kreditdan 1 (bir) oydan ko'p muddat davomida foydalanilmaganda (to'lov hujjatlarini taqdim etmaslik) Bank ushbu shartnomada nazarda tutilgan onlayn kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortishi mumkin.

12. To'xtatib turish, bekor qilish, majburiyatlar bajarilmasligi holati yuz berganda Bank harakatlari

12.1. Qarzdor tomonidan Majburiyatlar bajarilmasligi holati yuzaga kelganda Bank o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagi harakatlardan istalgan birini amalga oshirishga haqli:

- Qarzdorga Majburiyatlar bajarilmasligi holati yuzaga kelgani haqidagi xabarnomani vaziyatni tuzatish muddatini belgilagan holda yuborish;

- Ssuda qarzining qoldig'idan yillik 0,3% gacha bo'lgan miqdorda majburiyatni bajarmagan har bir kun uchun, lekin ko'pi bilan onlayn kredit qiymatidan 5% gacha miqdorda penya hisoblab borish va o'z farmoyishi bilan Qarzdorning istalgan hisob raqamlaridan istalgan vaqtda hisobdan chiqarish;

- Qarzdorning onlayn kreditdan keyingi foydalanish huquqini to'xtatib turish yoki uni bekor qilish;

- Onlayn kreditning barchasini yoki bir qismini muddatidan ilgari va darhol qaytarilishini talab qilish;

- Mazkur Shartnomaning 6-bo'limiga muvofiq sug'urta holati yuzaga kelganida naf oluvchi bo'lib xisoblanmish Bank sug'urta huquqidan foydalanish. Muddati o'tgan onlayn kredit ogohlantirishlardan keyin ham qaytarilmagan taqdirda, uni qonunchilikda belgilangan tartibda muddatidan avval to'liq undirish choralari ko'riladi va muddatidan oldin undirish natijasida olinmay qolgan foizli daromadlarni, ya'ni onlayn kredit Shartnomasi amal qilishning butun davri mobaynida olinishi lozim bo'lgan foizli daromadlarni undirish huquqiga ega.

12.2. Onlayn kredit Qarzdor tomonidan maqsadsiz ishlatilganligi aniqlangan taqdirda, Bank mablag'ning maqsadsiz ishlatilgan qismining 10% miqdorida jarima undirish. Maqsadsiz ishlatilgan onlayn kreditga jarima qo'llanilganidan keyin Bank talab qilgan muddatda onlayn kredit qaytarilmagan taqdirda, uni qonunchilikda belgilangan tartibda muddatidan avval to'liq undirish va huquqbuzarlik yuzasidan huquqni muxofaza qilish idoralariga ma'lumot berish yuzasidan tegishli choralar ko'riladi.

12.3. Hisoblangan jarimalar Bank tomonidan Qarzdorning barcha hisobraqamlaridan belgilangan tartibda so'zsiz undirib olinadi.

13. O'z huquqlarini berish

13.1. Bank Qarzdorning mazkur Shartnoma bo'yicha to'lov va boshqa majburiyatlarini Qarzdorning roziligisiz istalgan uchinchi tomon foydasiga sotish, o'tkazish yoki boshqacha tarzda tasarruf etishga haqli, va bunda uchinchi tomon bu holda Bankning mazkur Shartnoma bo'yicha barcha huquqlariga ega bo'ladi. Qarzdor o'z hisobiga Bankning so'roviga ko'ra ushbu o'tkazishga yuridik qonuniy tus berish uchun zarur bo'lgan barcha harakatlarni amalga oshirish majburiyatini zimmasiga oladi. Qarzdor o'zining mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini Bankning avvaldan yozma roziligisiz berishga yoki boshqacha tarzda ularni tasarruf etishga haqli emas.

13.2. Bank va Qarzdor o'zaro pul talablari huquqiga ega bo'lgan holda Bank o'z ixtiyoriga ko'ra Qarzdorning Bankka bo'lgan talablarini o'zining Qarzdorga bo'lgan talabiga



Hujjat elektron imzo bilan imzolangan

Tashkilot nomi: _____

Rahbari: _____

kun.oy.yil soat:dakika:soniya

nisbatan hisobga kiritishi mumkin. Qarzdor Bankning avvaldan yozma roziligisiz istalgan qarshi talablarini hisobga kiritish huquqiga ega emas.

14. Monitoring

14.1. Onlayn kredit mablagʻlari xisobiga sotib olinadigan avtotransport vositalari, maxsus texnikalar, kuchmas mulklar va boshqa davlat roʻyxatidan oʻtadigan mol-mulklarni tasdiqlovchi xujjatlar asosida maqsadli ishlatilishi tekshiruvi Bank tomonidan masofaviy tarzda amalga oshirilishi mumkin. Bunda taqdim etiladigan material (video yozuvlar, rasmlar) va xujjatlarning xaqqoniyligi, ularni oʻz vaqtida taqdim etilishi toʻliq Qarzdorning javobgarligi hisoblanadi.

14.2. Bank onlayn kreditdan foydalanish muddati davomida Qarzdor faoliyatini doimiy monitoring qilib boradi.

14.3. Monitoring oʻtkazish jarayonida qarz oluvchining moliyaviy-xoʻjalik faoliyati, tuzgan shartnomalari (buyurtmalar) boʻyicha majburiyatlarining bajarilayotganligi, ishlab chiqarish hajmi, noishlab chiqarish xarajatlari va yoʻqotishlari, foydasi, aylanma mablagʻlari aylanmasi va dinamikasi hamda tovar-moddiy boyliklar zaxirasi, tayyor, yarim tayyor mahsulotlar qoldigʻi holati tahlil qilib boriladi.

14.4. Onlayn kreditdan belgilanmagan maqsadlarda foydalanish holatlari aniqlangan taqdirda, Bank Qarzdorga kelgusida onlayn kredit berishni rad etishga, shuningdek onlayn kreditning qolgan qismini yoki kredit summasi va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin qaytarib olishga hamda shartnomada belgilangan shartlar asosida jarima belgilashga haqlidir.

14.5. Qarzdor onlayn kredit boʻyicha asosiy qarzi va unga hisoblangan foizlarni shartnoma shartlari asosida toʻlashdan bosh tortgan hollarda, Bank tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan choralar koʻriladi.

14.6. Monitoring natijasiga koʻra xolisona tuzilgan har qanday hujjatga Qarzdor imzo chekishdan yoki elektron imzo bilan tasdiqlashdan boʻyin tovlamasligi lozim.

15. Nizolarni hal etish tartibi

15.1. Tomonlar ushbu shartnoma yuzasidan kelib chiqishi mumkin boʻlgan kelishmovchilik va nizolarni muzokara va maslahatlar yoʻli bilan hal qiladilar. Agarda koʻrsatib oʻtilgan kelishmovchilik va nizolar muzokaralar yoʻli bilan hal etilmasa, ular Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan Bank joylashgan xududdagi sudga hal etiladi. Nizolar vujudga kelgan taqdirda, Bank yozuvlari, koʻchirmalar har ikki tomon uchun mazkur shartnoma boʻyicha majburiyatlar isbotining dalili boʻlib hisoblanadi.

16. Shartnomaning amal qilish muddati

16.1. Mazkur shartnoma aktseptlangandan soʻng kuchga kiradi, Qarzdor tomonidan ushbu shartnoma boʻyicha majburiyatlar toʻliq bajarilganiga qadar amalda boʻladi.

16.2. Mazkur shartnoma Bank tomonidan bir tomonlama bekor boʻlganda, Qarzdor onlayn kredit boʻyicha barcha qarzdorliklarni Bankka toʻlashi shart.

17. Boshqa shartlar



Hujjat elektron imzo bilan imzolangan

Tashkilot nomi: _____

Rahbari: _____

kun.oy.yil soat:dakika:soniya

17.1. Mazkur shartnomaning bir yoki bir nechta sharti qonunga yoki sud qaroriga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotsa, shartnomaning boshqa shartlari bekor bo‘lishiga asos bo‘lmaydi.

17.2. Mazkur shartnomada ko‘zda tutilmagan boshqa holatlar bo‘yicha tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan hal etadilar.

17.3. Mazkur Shartnoma qoidalarini talqin qilishda kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Tomonlar uzbek tilidagi matnga murojaat qiladilar.

Oferta beruvchi yuridik manzili: “Bank”

XATB “DAVR BANK”

Manzil: Toshkent sh., Olmazor tumani, Navoiy–Zarqaynar ko‘chasi, A-blok

H/R: 298010003000000981776

MFO: 00981; STIR: 203709707

Telefon: (99871)-207-09-09

Boshqaruv Raisi: A.A.Samadov



Hujjat elektron imzo bilan imzolangan

Tashkilot nomi: _____

Rahbari: _____

kun.oy.yil soat:dakika:soniya